

PANADAGI SIRLI KECHMISHLAR

Rushana Zaripova

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va
adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

E-pochta: rushanazaripova73@gmail.com

ORCID ID: 0009-0002-8207-2819

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14277167>

Annotatsiya. *Adabiyotshunos Ibrohim G'afurov o'z kitobini "Hayo-xaloskor" deb nomlashi bejizga emas. Chunki, Sharq adabiyotida asl maqsad-muddao insonda, eng avvalo, hayoni shakllantirishdir. Adabiyot esa hayoning onasidir. Adabiyotning asl maqsadi - xaloskorlikdir. Bu xaloskorlik kishi qalbida umid, ishonch uyg'otish, yupanch berish, irodani toblash, ezgulikka intilish, insonni anglash, salbiy taassurotlaru badbin xayollardan forig' etish kabi ming bir shaklda namoyon bo'ladi. Uning insonni fikrlashga chorlay olishining o'zi xaloskorlikdir. Ana shunday kitobxonni fikrlashga chorlovchi asarlar Nodir Normatov ijodida ham ko'plab uchraydi. Ushbu maqolada bu borada atroficha so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar: shaxs, adabiyot, axloq, hayo, Sharq, xaloskorlik.

MYSTERIOUS EVENINGS IN PANA

Abstract. *It is not by chance that literary scholar Ibrohim Gafurov named his book "Modesty - The Savior". In Eastern literature, the main goal is to cultivate modesty in a person. Literature is the mother of modesty. The true purpose of literature is salvation. This salvation manifests in countless ways, such as instilling hope, faith, solace, strengthening willpower, striving for goodness, understanding humanity, and freeing from negative impressions and pessimistic thoughts. The mere act of encouraging a person to think is a form of salvation. Such thought-provoking works are also frequently found in the writings of Nodir Normatov. This article discusses this topic in detail.*

Keywords: personality, literature, ethics, modesty, East, salvation.

ТАИНСТВЕННЫЕ ВЕЧЕРА В ПАНЕ

Аннотация. *Литературовед Иброхим Гафуров неспроста назвал свою книгу "Скромность - Спаситель". Ведь в восточной литературе основная цель - прежде всего сформировать скромность в человеке. Литература же является матерью скромности. Истинная цель литературы - спасение. Это спасение проявляется в бесчисленных формах, таких как внушение надежды, веры, утешение, укрепление силы воли, стремление к добру, понимание человека и освобождение от негативных впечатлений и пессимистических мыслей. Само побуждение человека к размышлениям является спасением. Такие*

произведения, побуждающие читателя к размышлениям, также часто встречаются в творчестве Нодира Норматова. В данной статье обсуждается эта тема.

Ключевые слова: *личность, литература, этика, скромность, Восток, спасение.*

Har bir kishi uchun ota-bobolari makoni - ro'yi zaminning muqaddas maskani bo'lib tuyuladi. Yillar o'tgan sayin ushbu hissiyot kuchayib boradi. Har bir inson o'z tug'ilgan qishlog'i yoki shahri to'g'risida so'z ketganda, to'lqinlanib ketadi. Qalbida turli kechinmalar sodir bo'ladi. Bu holat ayniqsa adabiyot vakillari, jumladan ijodkor-yozuvchilar ijodida yaqqol seziladi. Asarlarida, har bir satrida tug'ilib o'sgan joyi, bolalik damlari kechgan maskanni tasvirlashni, unda kechgan beg'ubor damlarni kitobxon bilan baham ko'rishni istaydi. Bu holat qadimdan bor narsa. Masalan, hazrat Navoiy o'z "Xamsa" sining to'rtinchi dostoni "Sabbayi sayyor" dostonida yettinchi iqlimdan kelgan musofir aynan Xorazm (Movaraunnahr)dan ekanligi va aynan shu musofir hikoyati Bahrom dardiga chek qo'yishi, yoki, XX asr o'zbek nasriga o'zining munosib hissasini qo'shgan adib Odil Yoqubov "Ulug'bek xazinasi" romanida mutlaqo to'qima obraz-Qalandar Qarnoqiy ham bunga misol bo'ladi. Ya'ni, Odil Yoqubov aynan Qarnoq qishlog'ida tug'ilib o'sganligi uchun ham ushbu obrazni yaratishga, bu bilan o'zining kindik qoni to'kilgan tuproqqa nisbatan muhabbatini kamtaringina bir xizmati orqali ko'rsatishga harakat qiladi. Jumladan, adib Nodir Normatov ham o'z asarlarida tog'lar orasidagi qadimiy qishloq tarixi, undagi buloq, soy, korizlar, shu joyda yashayotgan kishilarning ajdodlari, ularning o'ziga xos fe'l-atvori, urf-odatlar haqida yayrab, miriqib gapiradi va yozadi. Bu bolaligi o'tgan joylar, hovlisidagi dov-daraxtlar, jihozlar yillar o'tgan sayin kishining yuragini o'rtab yuboradigan hissiyotlar uyg'otishidan dalolat beradi. Jumladan, "Barigal" romanida, qissa va hikoyalarida Poshxurd manzaralari, undagi odamlar hayoti tasvirlangan.

Nodir Normatovning «Barigal» romani o'tgan asrning ayni qayta qurishlar qizigan va milliy davlatlarning mustaqillik qozonish harakatlari avjiga ko'tarilib, hal qiluvchi pallaga kirgan 1989-1990 yillarda qog'oz betiga tushib, 1991 yilda nashrdan chiqib, o'quvchilar qo'lga borib yetgan. Asar qo'lyozmalik holidayoq Said Ahmad, Erkin A'zam, Usmon Azim singari adiblarning e'tiboriga tushgan va ularning ma'qullashlari, madadlari bilan dunyo yuzini ko'rgan. Ushbu roman va uni nima uchun aynan "Barigal" deb nomlangani haqida adibning o'zi quyidagicha fikr bildiradi:

Avvalo, roman haqida ikki og'iz so'z. Ko'hitang tog' oraliqlarini kezsangiz, botil bo'lib qolgan qadimiy qishloqlarning xarobalariga ko'zingiz tushadi. Moziyning hidi kelib turgan bu joylarda qanday musibatu kulfatlar kechganligi, o'tgan asr ikkinchi yarmidagi turli voqealar,

mahalliy halq orasida yuradigan turli rivoyatlaru haqiqatlar meni qiziqtirib kelardi. To'plagan materiallarimni saralab ko'rib, fojia ildizi halqning, odamlarning birikmaganligida, an'analarning unutilganida ekanini angladim. To'g'ri, dangona deb atalgan urf-rasmda ham birikishga urinish bor. Ammo hamjihatlikka intilishning zaif, mo'rtligi hali odamlarimizda imon mustahkam emasligida ko'rinadi. "Barigal" nomini tanlashim, aslida, qo'shiqning mazmuniga ishora edi. Chunki beri kel, degan chorlov ham birlashuvning, ahillikning go'zal bir timsoli emasmi? Romanni yaqinda qayta ishlab, avvalgi nashrda tushib qolgan boblarni qo'shdim. Garchi nom asar ko'rki sanalsa-da, bu chiroyli nom nochor asarni bekamu ko'st qilib qo'yadi, degani emas."¹

Nodir Normatov asarning birinchi nashridan yigirma yil o'tib, uni qayta chiqarishga va ayni hozirgi o'quvchilarga «Ko'zgudagi ikkovlon» nomi bilan taqdim etish fikriga tushdi va bunga tayyorgarlik ko'rishga kirishdi. Tayyorgarlik deganimiz shuki, yozuvchi bu asarga yangi boblar qo'shdi, qahramonlar hayotini to'ldirdi, yangi chiziqlar bilan boyitdi. O'ziga zerikarli bo'lib tuyulgan o'rinlarni juda diqqat bilan tahrirdan o'tkazdi. Asar yangilanib, badiiy mukammallashib, muallifning keyingi yillarda yaratgan qissalari, hikoyalar turkumlari, badialari, ulug' rassom Ro'zi Choriyev to'g'risidagi hujjatli romaniga har jihatdan hamohanglik kasb etdi. Muallif asarlarining iqlimi, jo'g'rofiyasi, qahramonlarning turish-turmushi, qismatlari, fe'l-atvorlari, xatti-harakatlari g'oyatda o'ziga xos, badiiy tomondan ham takrorlanmas belgilarga ega.

«Ko'zgudagi ikkovlon»ning voqealari qadim Surxon vohasining tog'lar orasida joylashgan, birov bilgan-bilmagan, ammo bilmaganligi bilan aslo inson hayotiga aloqadorligi jihatidan ahamiyati pasaymagan Pana degan qishloqda ro'y beradi. Bu yerda ham Chingiz Aytmatovning Bo'ronli bekatiday odam siyrak, xonadonlar ko'p emas, hamma bir-birini besh qo'lday biladi. Xullas, XX asrning xaritalarida aks etmagan, nomi ko'rsatilmagan chekka qishloq. Bo'ronlidan poyezdlar Sharqdan G'arbga, G'arbdan Sharqqa tinimsiz o'tib turgani va kichkinagina ko'rimsiz bekat butun dunyoda borayotgan rang-barang ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy, insoniy jarayonlar bilan chambarchas bog'langani va o'sha global jarayonlarning tiniq bir tomchidagi aks bo'lgani kabi Pana qishlog'i ham qanchalik chetda bo'lmasin, dunyo hodisoti va, ayniqsa, juda tezlashib ketgan turli o'zgarishlari omonsiz tarzda uni o'z girdobiga tortadi. Qishloq kishilarining soddagina, hatto patriarxal deyish mumkin bo'lgan hayotlari mustabid markazdan boshqarilayotgan tuzumlarning o'zgarishlari alangalari ichida qaytadan bino bo'la boshlaydi. Panada tug'ilgan qismatlar zamon zayli bilan bir tomoni Yevropa, ikkinchi tomoni Osiyo deganday, tarmoqlanib tarqaladi. Yerli aholining ixtiyoridan, irodasidan tashqari, ommaviy

¹ N. Normatov, A.Ulug'ov.-// Biz izlayotgan hikmatlar// - O'zbekiston tarixi, adabiyoti va madaniyati// 24-dekabr, 2015-y.

ko'chishlar, to'g'rirog'i, ko'chirishlar charxpalagi tinmay aylanib turadi. qismatlar parrak kabi uchadi, payraxa kabi uvol-zavol topadi.

Pana - o'z oti bilan pana va bu yerda bironta, loaqal namuna uchun bag'ri butun kishi yo'q. Nima deyish mumkin, bunga? Kim borki, hammani zamon to'foni majruh qilib tashlagan. Voqealar XX asrning 60-yillaridan dam 30-yillarga va dam 20-yillarning talotumlariga ko'chadi. Romanda qahramonlar xotiralar bilan yashaydilar, xotiralarda esa davr fojialari aks etadi. Odamlar boshiga qismat kaltagi yog'ilavergach, ular najotni qayerdan kutish, qayerdan izlashni bilmay, irimchi bo'lib qoladilar. Irim, fol, rom va shunga o'xshash boshqa asroriy narsalarga ishonib, o'zlarini shular bilan ovutadilar. Irim ibtidoiyroq hayot sha- roitlarida, odamlarning qarashlarida muhim o'rin qozonadi. Insoniyat hayotida barcha xalqdarda shunday bosqichlar bo'lgan va uning oqovalari hamon saqlanib keladi. Panaliklar ham ishonib bo'lmaydigan narsalarga ishonadilar. Qiyinchiliklar, ojizliklardan qutulish yo'lini foldan, qimor, dangonadan qidiradilar.

Dangona - Pana tomonlarda xalq o'rtasida odat tusiga kirgan ommaviy hashar, sayr, o'yin- kulgi odati. Dangona - hasharda odamlarning ko'p chala ishlari bitgan, kulbalari tiklangan, ariqqa suvlar chiqarilgan, yerlar haydalgan, to'y-tomoshalar ahillikda o'tkazilgan. Mahalliy hokimiyat bir mahallari Navro'zni yoqtirmay, quvg'in qilganday, dangonani ham yoqtirmaydi va uning eskilik sarqiti sifatida yo'qolib ketishiga tarafdor. Qishloqlarda birov bunga ko'nadi, birov ko'nmaydi. Shu ko'nish - ko'nmaslikda hatto totuv, hamjihat yosh oila ikkiga ajralib ketadi. Tuz kon xizmatchisi Umarning xonadonida Umar (unga otasi qishloqda dangonani tiklaysan deb vasiyat qilib ketgan) dangona bo'lsin deydi va bunga e'tiqod qo'yib, jon kuydiradi. Uning yosh xotini muallima Malikaga esa dangonaning keragi yo'q, u o'tmasin deb qattiq oyoq tirab turib oladi. Asarning bosh konsepsiyasi va asosiy ziddiyat chizig'i xuddi mana shu masala bilan chambarchas bog'langan. Dangona tarixan shakllangan xalq udumi sifatida yashashga haqlimi yo yo'qmi? Malika hatto eri oldiga shart qo'yadi: dangonani tiklashga urinmasang, birga yashaymiz, bo'lmasa, ketaman, ajralamiz. Eri Umar ota vasiyati ta'sirida, xotinining bu gapiga ko'nmaydi va natijada Malika uyni tashlab ketib qoladi. Yosh oila barbod bo'ladi. Masalaning tagiga chuqurroq qaralsa, Malika dangonani faqat bahona qilayotganga o'xshaydi. Aslida bu ma'sum, odob-ikromli, zamonaviy fikrlaydigan ayol o'z oila hayotidan zerikkan, er tuzkondan charchab-horib kelib teskari o'girilib yotadi, xotiniga nisbatan mehr-muhabbat so'nganday taassurot tug'iladi. Malika shunday ko'ngli sovib-netib yurgan chog'larda bir kuni o'zi istamay qo'shni uyda turuvchi kon ishchisi, yosh, juda kelishgan yigit Qorajonning hammomda cho'milayotganiga ko'zi tushib qoladi. Nazarida u Surxon haykallarida tasvirlangan go'zal, azamat pahlavon bo'lib gavdalanadi va unga ko'ngli sust ketadi. Bu dangona, erining jismoniy horg'inligi, ko'ngilsizlikka qo'shilib, uydan bar urib chiqib ketishiga sabab bo'ladi. Yozuvchi bu kolliziyalarni ochiq-yalang'och bayon

qilmay, nozik sezilar-sezilmas ishoralar bilan anglatadi. Tutab yotgan ho'l o'tinga nogahoniy zaif bir yel tegdi va u tutashdan to'xtab yondi-ketdi. Malika shu yerlik bo'lsa, nega u xalq odatiga qarshi ekan? - degan savol tug'ilishi mumkin. Buning sabablari Malikaning ko'ngli tubidan joy olgan, unda juda chuqur o'rnashgan: uning onasini shunday dangonalardan birida badmast bir cho'pon zo'rlab qo'ygan va oilaning juda og'ir kunlari boshlangan. Bu jarohat Malikaning yuragini ham tilkalab o'tgan va unda bariga dangona sabab degan xulosa qattiq o'rnashgan.

Umar dangona uchun harakat qiladi-yu, lekin negadir oilasini saqlash uchun hech urinmaydi. Dangona qimmatli bo'lganda, yoshgina o'g'il farzand tarbiya topa- yotgan oila va uning farovonligi, yashovchanligi qimmatli emasmi, degan savol tug'iladi. E'tiqod oiladan zo'rroqmi? Qolaversa, dangona bunchalar keskin xatti-harakatlar qilishga sazovor bir narsa ham emasku, aslida. Lekin «Ko'zgudagi ikkovlon» qahramonlari tasavvurida boshqacha. Bizningcha, asl sabab er-xotin o'rtasida ko'ngil sovganida, ko'ngilsizlikning rohatsizligida. Ammo er-xotin buni aslo tan olmadilar va, hatto, bu haqda fikr yuritmaydilar ham. Dangona hatto bir oilaning bo'lsin, baxtini vayron etishga sababchi bo'larkan, uning ezguligi qayerda qoladi? Ammo, Malika o'z qismat jomini to'laligicha va oxirigacha ichadi. U oxiri Qorajonni zo'rlaydi, uni aloqaga majbur qiladi. Qorajon bundan nafratlanadi. Malika haqida yengiloyoq xotinlardan biri ekan degan xulosa chiqaradi. Malika o'zining bu qadar tuban tushganidan og'ir vijdon azobida qoladi va chidolmay o'zini yoqadi. Bular bari gapning ochig'ini aytgan va hodisani o'z nomi bilan ataganda, borib turgan metafizika bo'lib tuyuladi va yozuvchi shu metafizikaga atay urg'u berib tasvirlayotganday, metafizik hodisalarning inson hayotidagi o'rnini ochishga bel bog'laganday ko'rinadi. U qahramonlari taqdirleri ustida kimyogarlarday bosh qotiradi, kimyogar yechimlarini qidiradi.

Metafizikani faylasuflar Aristotel zamonlaridan to hozirgi kunlarga, Sartr va Xaydeggergacha tushuntirishga urinib keladilar va tushuntirishlar hali oxiriga yetgani yo'q. Hali ko'p zamonlar yetmasa ham ehtimol. Ammo bizning jaydari tushunchamizda metafizika bu tushunilishi qiyin, mubham hodisalar, inson intuitsiya yo'li bilan tushunishga intiladigan "narsalar! Umar va Malikaning so'z bilan tushunib yetish qiyin bo'lgan holatlari va xatti-harakatlarini metafizikaga daxldor harakatlar, ochiqlikdan ko'ra tumanliga yaqinroq deb bilamiz. Yozuvchi bunday tasvir usulini ongli tanlaganmi yoki qahramonlarining tabiati shu yo'lni ko'proq taqozo etganmi, buni birdan aytish mushkul.

Asardagi tipik obrazlardan biri Halima qimorboz kitobxon diqqatini o'ziga yanada jalb etadi. Bu haqida taniqli munaqqid Ibrohim G'afurov "*asarda ajoyib, chinakam bir romanbop*

*qahramon...*² degan fikrni bildirib o'tadi. U yosh ma'sum chog'larida Farhod qurilishida ishlagan, yerto'lalarda shiliniib, hasharotlarga talanib, juni to'kilgan po'stak ustida yashagan, har qancha aql bovar qilmas qiyinchiliklarda ham insonligini unutmagan, ma'suma qiz va odam bo'lib qolishga jon-jahdi bilan tirishgan Halima... Odamga qulday qaragan, qulday ishlatgan, qulday xo'rlagan va ularni kishilar ongiga qismat kabi singdirish yo'lida hech qanday razillik, hech qanday makkorlik, buqalamunlikdan qaytmagan, har daqiqada non va qamchi aqidasiga rioya qilgan qahrli va yovuz tuzum o'z ishboshilari, o'z jallodlari, o'z chaqimchilari, maddohlari, ko'zboyloqchilariga ega edi. Ular adolatsizlikning yog'och oyoq ustunlari bo'lib qolgan edilar. Tuganmas mashaqqatlar ichida ham ko'zlari yulduzday yonib turgan Halimani mana shunday yog'och oyoq chaqimchilardan biri Ortiq Tojimurodov zo'ravonlik girdobiga tashladi. Ammo asli qul bo'lmaydigan odam hech qachon qul bo'lmas ekan, Halima qul bo'lmadi. Toshlarini kemirdi, sellarni shimirdi. Odamlik qiyofasini yo'qotmadi. Taqdir o'yinlari uni qimor o'ynashga majbur qildi... Barbod bo'lgan hayotining barcha alamlari, azoblari, armonlarini qimor o'ynab unutishga odatlandi. Qanchalar ishonish qiyin bo'lib tuyulmasin, qimor uni mavh bo'lib ketishdan, maxluqqa aylanib qolishdan saqlaganday bo'ldi. Albatta, o'quvchi Halima tutgan yo'lni oqlay olmaydi, bu yo'lga qo'shilmaydi. Inson sha'nini saqlab qolishning bunday yo'lini rad etadi. Shu bilan birga o'quvchi Halimani ayblay olmaydi, undan nafratlanmaydi. Halima hayotning og'ir ko'chalarida sargardon kezib, «qimorboz» laqbini orttirgan. Lekin uning tabiiy odamparvarligi, yetimparvarligi, kambag'alparvarligi va adolatparvarligi oldida bu laqabning hech qanday ahamiyati qolmagandek ko'rinadi. Malomat choponi ostida oliyjanob ayol qalbi urib turadi. U hayotda hammasini bo'yniga olgan va o'zi zilday taqdir yukini matonat bilan ko'tarib boradi. U sargardon yura-yura hayot poyonida tug'ilgan qishlog'iga kelganda, xuddi boladay bo'lib qoladi.

Falsafada desotsializatsiya degan tushunchani ishlatishadi. Ijtimoiylikdan ajralib qolish. Halima mana shunday ijtimoiylikdan o'z ixtiyoridan tashqari, ajralib qolgan minglarcha odamlardan biri. Shu ajralishga chidolmay va buning yukini ko'tarolmay u o'z joniga qasd qilishgacha boradi. Roman qahramonlarini metafizik hissiyotlar hamda munosabatlarning girdobi qurshab olgan. Umarning onasi «oyna ayolning jismidan yaralgan» degan metafizik xayolga ishonadi. Qarangki, Malika boshdan-oyoq kuyib, o'lar holatda yotganda, o'z kelinlik oynasini keltirib berishlarini so'raydi. U o'z oynasiga qarab, unda o'z qiyofasini ko'rishnigina emas, balki xuddi romanda hikoya qilingan afsonadagiday qiyofasining yangidan bino bo'lishi va oyna vositasida yangi bir odamga aylanishni ham xohlaydi, chamasi. Bu ham romanda ko'p uchrovchi masalani metafizik yechimga yetkazishning bir misoli.

² N.Normatov. "Ko'zgudagi ikkovlon" T.: "O'zbekiston"-2013. 7-b.

REFERENCES

1. Adabiyot nazariyasi. 2 jildlik. Adabiy asar. 1-jild. – Toshkent: Fan, 1978.
2. Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar. – Toshkent: Ma’naviyat, 2000.
3. Normatov U. Qahhorni anglash mashaqqati. – Toshkent: O’zMU, 2000.
4. Гинзбург Л.Я. О психологической прозе. – Л.: Художественная литература, 1977.
5. I. Sulton. Adabiyot nazariyasi. - Toshkent: O’qituvchi, 2005.
6. Adabiyot va zamon. Maqolalar, adabiy o’ylar, suhbatlar. – Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1981
7. N. Normatov «Bisot: qissalar va hikoyalar” T.: “Sharq”, 2012.